

Nabiyeva Mohichehra Nabi Qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Boshlang'ich Ta'Lim Fakulteti Talabasi.

Annotatsiya: *Maqola islom talimotida farzandga beriladigan tarbiya haqida bo'ladi. Hozirgi kunda aksariyat ota-onalar farzandlariga to'g'ri tarbiya bermaydilar. Farzandlari nimani istashsa o'sha narsani oldiga muhayyo qilib qo'yishadi. Negaki ular o'z vaqtlarini tejash uchun, farzandlanini shu bilan ovunishi uchun. Ammo bu juda katta xato hisoblanadi.*

Annotatsiya: *The article is about the upbringing of children in Islamic teachings. Nowadays, most parents do not give proper upbringing to their children. They give their children what they want, because it is to save their time, so that the children can play with it, this is the biggest mistake.*

Key words: *education, upbringing, parents, conduct*

Аннотация: *В статье речь идет о воспитании детей в исламском учении. В настоящее время большинство родителей не дают должного воспитания своим детям. Они дают своим детям то, что они хотят, чтобы сэкономить свое немного времени, чтобы их дети могли с этим отвлечься, но это большая ошибка.*

Ключевые слова: *Образование, воспитание, родители, поведение.*

KIRISH

Islom dinida bola tarbiyasi asosiy o'rin egallagan. Bola tug'ilganidan boshlab emas, balki ona qornidan boshlab tarbiyalana boshlaydi. Tarbiya bolaning otasi, onasini tanlashdan boshlanadi. Chunki Rasuli akram alayhissalom aytganlar " Munosib kelin yoki kuyov tanlanglarki, irq o'tuvchidir. ". Ya'ni ota-onaning fe'li bolaga o'tadi. Shuning uchun bola yaxshi tarbiyali bo'lishi uchun otasi tarbiyali bo'lishi kerak. Onasi nasl-nasabli, pokiza, din-diyonatli bo'lsa, otasi ham shunday bo'lsa, albatta bola nasl-nasabiga tortadi.

Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. Bizning ota-bobolarimiz oilani qadimdan e'zozlab-avaylab kelganlar. Ota-ona va farzand munosabatini shakllantirishda oilaning o'rni beqiyos. Islom dinida Alloh bilan banda o'rtasida haq bo'lgani kabi, banda bilan banda o'rtasida ham haqlar mavjud. Ushbu risolada ota-ona va farzand o'rtasidagi haqlar va ularni ado etish kabi masalalar atroflicha yoritilgan. Alloh bu risolani hammamiz uchun manfaatli qilsin. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning «Rob» ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya – faqat ta'sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Farzand tug'ilishi bilan ota-ona zimmasiga vojib haqlar paydo bo'ladi. Bolaga yaxshi ism berib, qulog'iga azon aytishi kerak, sochini olib, sadaqa qilib, 7-14-kuni aqiqa qilinsin, deyiladi. Tarbiya farzandni

doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga maqto'vlar bo'lsin, degan. Ota-ona farzandiga bir lahza e'tiborsiz bo'lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam marhamat qilganlarki, har bir tug'iladigan bola fitratda tug'iladi, ya'ni har bir chaqaloq pokiza bo'ladi, u oq qog'oz kabidir. Ota-ona tarbiyasining ahamiyati haqida janob Rasulullohdan (sollallohu alayhi va sallam) ushbu hadisi sharif vorid bo'lgan: "Har bir farzand musulmon fitratida tug'iladi, lekin uni yahudiyga aylantirib yuboradigan ham, nasroniy yoki majusiyga aylantirib yuboradigan ham uning ota-onasidir" (Imom Buxoriy rivoyati).

Farzand ota-onaning siridir. Farzand uchun ota-ona ibratdir. Shu o'rinda dunyoga mashhur tasavvuf shayxlaridan birining onalari o'z farzandini tarbiyalab voyaga yetkazishda qanday yo'l tutgani haqida tanishamiz. So'fiylikning mashhur shayxlaridan Abdulqodir G'iloniy (rahimahulloh) bunday hikoya qiladi: "Bolaligimdan meni to'g'riso'z, rostgo'y bo'lishga o'rgatishgan edi. Bir kuni Makkadan chiqib, ilm olish maqsadida Bag'dodga boradigan bo'ldim. Onam yo'l xarajatlari uchun qirq dinor pulni choponim qatiga tikib berar ekan, mendan hech qachon, har qanday holatda ham yolg'on gapirmaslik haqida va'damni oldi. Karvon bilan Hamadon o'lkasiga yetganimizda qaroqchilar to'dasi hujum qilib, karvondagilarning borbudini tortib oldi. Qaroqchilardan biri: "Sening nimang bor?" deb so'radi. Men: "Choponim qatida qirq dinor oltinim bor", deb rost gapirdim. U meni to'da boshlig'iga olib bordi. Boshliq: "Rostini aytishga seni nima majbur qildi?" deb so'radi.

Men: "Onamga hech qachon yolg'on gapirmayman, deb va'da berganman", dedim. Shunda qaroqchilar boshlig'ini birdan qo'rquv bosdi. U qichqirganicha ushbu so'zlar bilan o'z kiyimlarini yirta boshladi: "Sen onangga bergan va'dangni buzishdan qo'rqib, oltinlaringni ko'rsatyapsan, men esa Allohga bergan va'damni buzishdan qo'rqmayapman". Keyin u odamlariga barcha tortib olingan narsalarni qaytarib berishni buyurdi va: "Mana, sening huzuringda gunohlarim uchun Allohga tavba qilyapman", dedi. Boshqa qaroqchilar ham unga: "Sen talonchilikda bizning to'daboshimiz eding, endi tavba qilishda ham rahnamoyimiz bo'l!" deyishdi.

Bola ulg'ayish jarayonida hamma narsani asosan ota-onasidan o'rganadi. Ulardan ibrat olib, ularga taqlid qilib, hayotiy tajriba orttira boradi. Endi o'zingiz qo'pol va badxulq bulsangiz-u, bolanigizni chiroyli xulqli va odobli qilib tarbiyalayman deb o'ylasangiz, xato qilasiz.

Bu boradagi ajoyib rivoyatlarni ham ko'p eshitgansiz: "Bir yigit otasining soqolidan tutamlab urayotganiga mahalla-ko'y shohid bo'lib, qattiq iztirobga tushibdi, "inson farzandi otasini ham uradimi", deb qayg'u chekibdi. Shunda ko'pni ko'rgan bir otaxon: "Bunga ajablanmasangiz ham bo'ladi, hozir xo'rlik ko'rayotgan kishi yoshligida otasining soqolidan tortib xuddi hozirgiday urgan edi. Mana endi o'ziga qaytdi", degan ekan".

To'g'ri, har bir ota-ona farzandiga faqat yaxshilikni ilinadi. Farzandi uchun ortiqcha orzu-havas qiladi va ikkalasi birga ishlaydi. Ota-ona farzandini tarbiya qilish kerak bo'lgan paytda orzu-havas uchun tirikchilik qilishga majbur bo'ladi, bola tarbiya

oladigan yoshda to'liq tarbiya ololmay qoladi. Ammo, afsuski, ertaga orzu-havaslar o'tmay qolishi bor. Aslida, orzu-havas chiroyli tarbiya bilan bo'ladi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: «Ota farzandiga chiroyli tarbiyadan ko'ra, yaxshi odob berishdan ko'ra yaxshiroq narsa meros qoldirmagan», degan hadislar bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.islom.uz/view/islomda-farzand-tarbiyasi>
2. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/tarbiyadarozgor-ishlarida-ota-ona-ibrati>
3. <https://farzandtarbiyasi.uz/ota-ona-burchlari/>